

TASVIRIY SA’NATDA “PERSPEKTIVA” FANINING RO‘LI

K.Behzod nomidagi MRDI

“ Chizmatasvir ” kafedrasi dotsenti: R.R.Umirzaqov

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Perspektiva” fanining, Tasviriy sa’natda nechog’li muhim ro‘l ekanligi haqida aytilgan. Undan tashqari perspektiva so‘zi va perspektiva fanining kelib chiqish tarixi va uning rivojlanishiga katta xissa qo‘shgan buyuk shaxslar haqida ham misollar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье важную роль играют дисциплины «Перспектива» в изобразительном искусстве. Кроме того, приводятся примеры происхождения слова «перспектива» и истории науки о перспективе, а также выдающиеся деятели, вносящие дополнительный вклад в ее развитие.

Abstract: This article highlights the disciplines of Perspective in fine arts. It also provides examples of the origin of the word "perspective" and the history of the science of perspective, as well as outstanding figures who have made additional contributions to its development.

Kalit so‘zlar: Proektsiya, nuqta, proektsiyalash, markaziy proektsiyalash, bosh nuqta, masofa nuqtalari, bosh ko‘rish nuqtasi, umumiy uchrashish nuqtasi, tekisliklar, qisqarishlar, chiziqli perspektiva, havo perspektivasi va boshqalar.

Ключевые слова: Проекция, точка, проекция, центральная проекция, начало координат, удаленные точки, точка начала координат, общая точка встречи, плоскости, сокращения, линейная перспектива, воздушная перспектива и т. д.

Keywords: Projection, point, projection, central projection, origin, distant points, origin point, common meeting point, planes, abbreviations, linear perspective, aerial perspective, etc.

Tevarak-atrofimizda joylashgan narsalarning ko‘zingizga asl holidan boshqacharoq ko‘rinishi va bu holatning sabablarini o‘rginish perspektiva fanining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Masalan, turli ko‘za va chelaklarning aylana qismlari umumiy vaziyatda ellips yoki to‘g‘ri chiziqli holatida, o‘zaro parallel bo‘lgan temiryo‘l relslari esa bizdan uzoqlashgan sari bir nuqtada uchrashgandek bo‘lib ko‘rinadi. Balandliklari bir xil bo‘lgan simyog‘ochlarning uzoqda joylashganlari boshidagilarga nisbatan kichik o‘lchamda ko‘rinadi. Bunday hodisalar biror qonuniyatga asoslanishini „Perspektiva“ fani to‘laqonli yoritib beradi. Ona tabiatdagi narsalarning ko‘zimizga o‘z shakliga nisbatan biroz o‘zgarib ko‘rinishi, rassomlarning yaratgan realistlik asarlaridagi chuqurlik fazosining ochib berilishi sabablari bir necha asrlardan beri o‘rganilib kelingan va perspektiva faniga asos solingan. Perspektiva fani tabiatdagi

narsalarning ana shunday ko‘rinishini tekislik yoki biror sirt ustida tasvirlash usullarini o‘rganadi.

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda yosh avlod haqida g‘amxo‘rlik qilish asosiy va ustivor vazifa qilib belgilangan. Mamlakatimizning birinchi prezidenti aytganlaridek “Yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan xozirgi kun talablari darajasida fikrlay oladigan yetuk kadrlarni tayyorlash ham ijtimoiy siyosiy, hamda iqtisodiy muammolarimizni hal etishning kaliti hisoblanadi” , degan edi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, eng to‘g‘ri yo‘l ta‘lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, yanada mustaxkamlash yo‘lidir. Biz bu yo‘ldan xech qachon qaytmaymiz. Yangi-yangi maktablar qurish, zamonaviy o‘quv laboratoriyalarini tashkil etish, kollejlarni bitirib chiqayotgan bolalarimizni to‘liq ish bilan ta‘minlash masalalari doimo e‘tiborimiz markazida turadi .

Ta‘lim tizimida o‘tkazilayotgan islohot qamrovining kengligi va chuqurligiga ko‘ra bag‘oyat keng ko‘lamli bo‘lib, davlat va jamiyat uning kafolatidir. Oliy ta‘lim tizimida o‘qitish samaradorligini takomillashtirishning asosiy sharti ko‘p jixatdan ta‘lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning bilim darajasi, ilmiy dunyoqarashining shakllanganligi hamda kelgusida faoliyat olib boradigan mutaxassislikka xos ko‘nikma va malakalarni tarkib topganligi bilan belgilanadi. Albatta kasbiy tayyorgarlik o‘z-o‘zidan yuzaga kelmay balki ma‘lum bir bosqichlarni qamrab oladi.

Shaxsda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi dastlab kasbga xos tasavvur, tushunchalarni shakllanganligi bilan belgilansa, keyinchalik mutaxassislikka oid ro‘llarni anglab yetishi va egallashi bilan izohlanadi.

Buning uchun ixtisoslikga yo‘naltirilgan oliy ta‘lim muassasalarida talabalarga o‘qitilayotgan fanlarni biri misolida tushuncha berib o‘tmoqchiman. Ya‘ni perspektiva fani misolida. Shu o‘rinda avvalo perspektiva so‘ziga izoh berib o‘taylik, Perspektiva frantsuzcha so‘z bo‘lib, la perspective-uzoqqa qarash, yunonchasiga esa perspictor-oyna orqali to‘g‘ri va aniq ko‘rayapman degan ma‘noni bildiradi. Agar markaziy projektsiyalash insonning ko‘rish xususiyati talablariga moslashtirilsa, yasalgan tasvir yaqqol va ishonchli chiqadi. Bu talablar projektsiyalanuvchi ob‘ektning bir-biriga nisbatan o‘zaro joylashuvi va ular orasidagi masofalar bilan bog‘liqdir. Demak, insonning ko‘rish xususiyatini hisobga olgan holda markaziy projektsiyalash usulida bajarilgan tasvir perspektiva deb ataladi.

“Perspektiva – tasviriy san‘atning grammatikasidir”, chunki yaratilgan har qanday realistik tasviriy san‘at asari perspektiva qonuniyatlari asosida bajariladi yoki bajarilishi shart. Shundagina bu asarning to‘g‘ri chizilganligi yoki hayotiyliigi ta‘minlanadi. Agar tasviriy san‘at asari bu qoidalarga amal qilinmasdan yaratilsa, ilmiy kuzatuvchilar “bu rasmda perspektiva yo‘q”, oddiy kuzatuvchilar “bu rasmda narsalar

o‘ziga o‘xshamabdi” deyishadi. Perspektiva fani realistik rasm yaratish uchun ilmiy manba vazifasini o‘taydi va narsalarni ko‘z o‘ngimizda qanday ko‘rsak, shunday tasvirlashga yordam beradi.

Kartina deganda nafaqat rassomlar yaratgan tasviriyl san'at asari, balki ma'lum bichim (format)da bajarilgan perspektiv tasvir ham tushuniladi.

Ma'lumki, kartinada bajarilgan har qanday tasvir perspektiv yasash elementlari, h ufq chizig'i, turli uchrashish nuqtalari, R bosh nuqta, D1 va D2 masofa nuqtalari, F1,F2,F3... umumiy uchrashish nuqtalari va S ko'rish nuqtasining o'zni nomli element nuqtalar ishtirokida bajariladi.

Rassomlar tomonidan ishlangan kartinada bu elementlar o'chirib tashlanadi. Ayrim mahoratli rassomlar bu elementlarning ishtirokisiz ham asarlar yaratishadi. Shunday bo'lsa ham rassomlar o'zlarining asarlarida insonlarga kuchli ta'sir etish, hayojonlanish yoki rohatlanish kabi tuyg'ularni uyg'otish uchun perspektiva yasash qoidalariga amal qilish yoki teskarisini qo'llash odat bo'lib qolgan. Kartinani perspektiv tahlil qilish davrida uning elementlarini va aslini qayta tiklash jarayoni kartinani (rekonstruktsiya) qilish mavzusida ma'lumot berib o'tiladi. Shu boisdan kartinaning elementlarini tahlil qilish umumiy ko'rinishda bayon qilinadi.

Har bir rassom o'zining asarini mukammal yaratilishiga, kompozitsiya jihatidan “mustahkam” bo'lishiga, kishi ruhiyatiga turlicha ta'sir etishga erishish uchun h ufq chizig'ini va undagi ko'rish nuqtasini har xil burchakda, past, baland joylashtirib ta'sir qilishga intiladi. Masalan, tabiat manzarasini chizish uchun, h ufq chizig'ini kartinaning o'rtasidan oladi. Yer yuzasidagi borliqning “portretini” tasvirlash uchun esa, h ufq chizig'ini balandroq yoki havodagi voqealarni ko'proq namoyon qilish maqsadida, h ufq chizig'i pastroqda o'tkaziladi.

Odatda, rassomning surat ustidagi ishi kompozitsiyani tanlash, chizmalar va eskizlarni chizishdan boshlanadi. Unda rassomning ilk syujet fikrlari, harakatlanayotgan shaxslar va ularni o'rab turgan atrof-muhitning kompozitsion joylashuvi ifodalanadi. Chizmalar perspektivaning umumiy qonun-qoidalarini e'tiborga olgan holda chiziladi, biroq unda chiziq yo'llari deyarli ko'rinmaydi. Kompozitsiya ustida ishlash davomida chiziq yo'llarini aks ettirish, perspektiv joylashuvi to'g'ri joylashganligini, ularning rassom dunyoqarashiga va surat syujetiga hamohangligini tekshirish zarur. Suratning umumiy tuzilmasini buzmaganda holda, rassom uning barcha elementlari (unsurlari)ni yana bir bor ko'zdan kechiradi. Bunda suratning xatosiz chizilishini amalga oshirish uchun suratda aniq ifodalanmagan joylashuvlarni qaytadan to'g'rilashi kerak. Buning uchun suratning perspektiv joylashuvini tahlil eta olishni va uning asosini tashkil etuvchi elementlarining nazariy joylashuvini bilishi kerak.

Rassom o'z fikrini ifodalashda perspektiv tasvirning muayyan shartlaridan foydalanadi. Bunda eng asosiy e'tibor ko'rish nuqtasining to'g'ri tanlanishi va, h ufq

chizig‘ining balandligi, inter'erning joylashuvi, yorug‘lik manbai o‘rni va narsa-buyumlar aks tasviriga qaratiladi. Bularning barchasi kompozitsiya xususiyatlariga va suratni ko‘rayotgan tomoshabin harakatiga ta'sir etadi. Masalan, tomoshabin e'tiborini suratning aniq bir joyiga yo'naltirish uchun rassom kompozitsion markazdan foydalanadi. Bu perspektivaning chuqurligi R bosh nuqtada belgilanadi.

Leonardo Da Vinchi o'zining mashxur risolasida bizga, yosh rassom birinchi bo'lib masofani va nuqtai nazarni his qilishi, bizga yaqin ob'yektning hajmi katta, aniq va tiniq ko'rinishi, aksincha masofa uzoqlashgan sari hajmi kichrayib, aniqlikni yo'qota borishini, nur va soyalarni hiralashsishini isbotlagan.

Perspektiva tasviriy san'atni grammatikasi deb bejizga aytishmagan. Chunki har-bir rassom asar yaratayotganda avvalo perspektiv qonun-qoydalariga amal qilingan holda eskizini ishlab olishadi.

Perspektiva bo'limi chizma geometriya fanidagi markaziy proyeksiyalash mavzusiga asoslanganligi tufayli u tasviriy san'atni realistik oqimida ijod qiluvchilar uchun ilmiy baza bo'lib, rassom narsalarni ko'z o'ngida qanday ko'rsa, shundayligicha tasvirlashda yordam beradi.

Perspektiva bo'limiga oid boshlang'ich ma'lumotlarni Anaxsagora (eramizdan 6 asr oldin). Demokrit (eramizdan 4-5 ars oldin). Esxila (eramizdan 5-6 asr oldin). Yaratgan dekaratsiya asarlarida ko'ramiz.

Rim me'mori Marka Vitruviy (eramizdan 1 asri). Tekislikda binolarning tasvirlarini yasash usulini ishlab chiqdi.

Uyg'onish davriga kelib buyuk Italiyalik rassom va muhandis olim Leonardo da Vinchi (1452-1519), Perspektiva oid juda ko'plab yangiliklar kiritdi. Narsalarni bir chiziq bo'yicha qisqarishini kuzatib “chiziqli perspektivaga”, tabiatni kuzatishlarida havo qatlamini qalinlashishi oqibatida ranglarni o'zgarishini aniqlab havo perspektivasi va narsalarning chegaralari ya'ni (qirralari) uzoqlashgan sari xiralashib borishini aniqladi.

Shuning uchun ham Leonardo da Vinchi “Perspektiva tasviriy san'atning ro'lidir” deb aytgandi.

Nemis o'ymakor rassomi Al'berxt Dyurer (1471-1528) o'zining risolasida ortogonol proyeksiyadan foydalanishni tatbiq qilish usulini bayon qilgan. U o'zining perspektiva apparatida ko'rish nuqtasining qo'zg'almas ekanini isbotlagan.

Uyg'onish davrining buyuk haykaltaroshi va rassomi Mikelandjelo Buanarroti (1475-1561) rel'efli perspektivaga, Rafael' Santi (1483-1520) Kubballi va Panoramali perspektivaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Italiyalik me'mor va teatr bezagi rassomi Andreo Patstso (1642-1709) o'zining “Nafis san'atchilar va me'morchilar perspektivasi” asarida perspektivaning hamma turlariga yakun yasadi.



1-rasm.



2-rasm.

Talabalar tomonidan ishlangan ushbu tog‘ manzarasani perspektiv taxlil qilinganda, bu kartinada P bosh nuqta juda yaxshi joydan tanlanganini guvoni bo‘lamiz.(1-rasm). Undan tashqari shahardagi biron-bir ko‘cha manzarasi ishlangan kartinada ham bosh ko‘rish nuqtasi mahorat bilan topilganini guvoni bo‘lasiz. Chiziqli perspektivaga xos bo‘lgan barcha chiziqlar R bosh nuqtaga borayotganligi sababli kartinaning perspektiv yechimi to‘liq talablarga javob beradi. Ushbu (akvarel) suv bo‘yog‘ida ishlangan kartinalarni kuzatgan odam bu kartinalarda perspektiva bor deb qanoat xosil qilishadi.(2-rasm).

Xulosa qilib aytganda “Perspektiva” fani, Tasviriy sa’natda eng asosiy ro‘lni o‘ynaydi. Realistik oqimda kartina ishlovchi rassomlar albatta perspektiv qonun-qoidalarda rioya qilishlari shart. Ijodkor rassomlar va talabalar, natyurmort, natura,

tabiat manzarasi yoki shahar ko‘rinishlarini tasvirlar ekan so‘zsiz, “Perspektiva” faniga murojat qilishadi, shu sababli ijod axli perspektiv qonun-qoidalarini puxta va mukammal o‘rganishlar talab qilinadi.

I.Asosiy adabiyotlar

- 1.Xorunov R.X. PERSPEKTIVA kursi-Toshkent. “O‘qituvchi” 4-nashri. 1997.
- 2.Xorunov R.X. Akbarov A. Chizma geometriyadan masalalar va ularni yechish usullari. 2-nashri. “O‘qituvchi” 1995.
- 3.Murodov Sh.K. va boshqalar. PERSPEKTIVA kursi-Toshkent. “O‘qituvchi” 1988.
- 4.Murodov Sh, Xakimov L, Jumayev M va boshqalar. “PERSPEKTIVA kursi” 2006.
- 5.Murodov Sh, Xakimov L, Xolmirzayev A va boshqalar. ‘PERSPEKTIVA kursi” (rangli nashrda).
- 6.Sindarov R.U., Xakimov L., Jumayev M. “Chizma geometriyadan elektron ma’ruzalar matni”.

Qo‘shimcha adabiyotlar

- 1.Ismatullaev R.K.Chizma geometriya. Toshkent. 2003.
- 2.Akbarov A. “PERSPEKTIVAv muxandislik grafikasi” Toshkent. 2004.
- 3.Yodgorov J., Odilov p., Narzullaev S. Chizma geometriya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “O‘qituvchi” 1991.
- 4.Ismatullaev R.K., Valiev A.N. Chizma geometriya. Toshkent. “TDPU”.2000.
- 5.Raxmonov I.T. Perspektiva. Toshkent. 1993.
- 6.Makarova M.N. Perspektiva.Moakva. “Proveshenie”. 1989.
- 7.Odilov P.O. Perspektiva (ma’ruza matni). Toshkent. 2000.